

MAKTABLARDA TA'RBIYA FANINI OQITISHDA KLAS- TER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Madetbayeva Xurliman Sapargaliy qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15149842>

Annotatsiya. Ushbu maqola maktab o'quvchilariga ta'rbiya fanini oqitishda klaster texnologiyasidan foyalanishni, dars vaqtida o'z fikrlarini erkin va ochiq ifodalay olishlarini, darsni yanada oson va tez tushunib olishlariga yordam berishdan iborat.

Kalit so'zlar: klaster, metod, texnologiya, ta'rbiya, o'quvchilar, muammo, bilim, tadqiqot.

ADVANTAGES OF USING CLUSTER TECHNOLOGY IN TEACHING EDUCATION IN SCHOOLS

Abstract. This article aims to help schoolchildren use cluster technology in teaching education, to express their thoughts freely and openly during lessons, and to understand the lesson more easily and quickly.

Keywords: cluster, method, technology, education, students, problem, knowledge, research.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛАСТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ОБРАЗОВАНИЯ В ШКОЛАХ

Аннотация. Данная статья направлена на то, чтобы помочь школьникам использовать кластерную технологию в преподавании образования, свободно и открыто выражать свои мысли на уроках, легче и быстрее понимать урок.

Ключевые слова: кластер, метод, технология, образование, студенты, проблема, знания, исследование.

KIRISH

Zamonaviy maktab oldida har taraflama yetuk shaxs ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy va kamolatga ega shaxsni ta'rbiyalash vazifasi turibdi. Bu masalani bartaraf etish uchun zamonaviy ta'rbiya usullaridan keng foydalanishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuniga ko'ra o'qituvchiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilayotgan maqsat – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bolgan komil inson va malakali mutaxassisni ta'rbiyalib voyaga yetgazishdan iborat.

Ta'ribya fanini o'qitishda har qanday texnologiyalardan foydalanish va undan yaxshi natija olish pedagogning moharatiga bog'liq.

Klaster metodi – bu o'quvchilarning bilimlarini sistemalashtirish, yangi g'oyalarni yaratish uchun qo'llaniladigan samarali metod. Asosan mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ijodiy yondoshuvlarni shakllantirishga yordam beradi. Klaster metodi aniq obiektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Masalan, maktablarda guruhlariga bo'lgan holda klaster texnologiyasidan foydalanilsa: o'quvchilar orasida hamjihatlik, do'stlik, fikr almashuvchanglik, diqqatni jamlash, erkin fikrlash kabi hislatlarni rivojlantira olamiz.

Tadqiqot maqsadi:

Maktablarda ta'ribya fanini o'qitishda klaster texnologiyasidan foydalangan holda o'quvchilarda erkin fikrlashni, darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishni va klaster texnologiyasining foydasini baholashdan iborat.

Tadqiqot savollari:

1. Klaster texnologiyasi ta'ribya fanini o'qitishda qanday ahamiyatga ega?
2. O'quvchilar ushbu texnologiya orqali mavzularni yaxshiroq tushunishadimi?

Metodlar:

- Kuzatish
- Tushuntirish
- Illyustratsiya
- Mustaqil fikrlashni rivojlantirish

Tadqiqot ishtirokchilari:

Tadqiqotta Nukus shaxar 27- sonli maktabning 7-sinf oquvchilari ishtirok etishdi va ikkita guruhga bo'lindi.

1. Eksperimental guruh: klaster texnologiyasidan foydalangan holda dars olib borildi.
2. Odatiy guruh: an'anaviy guruh: an'anaviy dars usullari qo'llanildi.

Tadqiqot jarayoni:

Eksperimental guruhga klaster texnologiyasining mohiyati tushuntirildi va klaster metodidan foydalanib dars o'tildi. Odatiy guruhda an'anaviy dars usuli qo'llanildi.

O'quvchilarning bilim darajasi test sinovlari orqali baholandi.

Natijalar:

Eksperimental guruhda o'quvchilarning 85% i mavzuni yaxshi tushungan, odatiy guruhida bolsa bu ko'rsatgich 65% ni tashkil qildi. O'qituvchilar ham ushbu metoddan foydalanish darsni jonlantirishni ta'kidladilar.



Muhokama:

Natijalar shuni ko'rsatadiki, klaster texnologiyasi ta'rbiya fanini o'qitishda samarali usul hisoblanadi, o'quvchilar materialni yaxshiroq tushunishadi, mantiqiy fikirlashi ham rivojlanadi.

Xulosa:

Klaster texnologiyasi darsni yaxshiroq o'zlashtirishga, o'quvchilarning darsga yanada qiziqish bilan qarashiga, darsning jonli o'tishiga yordam beradi. Nafaqat ta'rbiya fanini, boshqa fanlar ham ham shu usulda o'tilsa yaxshi natija beradi.

REFERENCES

1. G.B. Saidnazarova "Kamolot" nashriyoti. Buxoro – 2024. B.32-34.
2. SH.M. Mirziyoev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqqadas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" videoselektor yig'ilishidagi nutq – 15-iyun 2017- yil.
3. <https://uz.wikipedia.org>